

## KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLINI IJTIMOY HIMOYA QILISH

Toshkent davlat tibbiyot Universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedra katta o‘qituvchisi  
**Sultanova Xalida Tursunmuratovna**

Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish har qanday davlatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalaridan biridir. Kambag‘allik - bu insonlarning o‘zining asosiy ehtiyojlarini, ya’ni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta’lim va tibbiy xizmatlarga bo‘lgan talablarini to‘liq qondira olmaslik holatidir. Kambag‘allikni qisqartirish uchun, avvalo, aholining daromadlarini oshirish zarur. Buning uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kichik biznes va oilaviy korxonalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, aholining kasbiy malakasini oshirish, ularni zamonaviy kasblarga o‘qitish orqali bandlik darajasini oshirishgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish esa davlat tomonidan amalga oshiriladigan muhim chora-tadbirlar tizimidir. Bu tizim kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam berish, nafaqalar tayinlash, bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatish va ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy davrda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhimdir.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, muno sib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. So‘nggi yillardagi islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiyhuquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiyma’ri fiy asoslari yaratildi. Yuqorida qayd etilganidek, kambag‘allik nisbiy tushuncha bo‘lib, ma’lum bir jamiyatdagi umumiy hayot standartlariga bog‘liq. Ma’lum bo‘lgan kambag‘allik me’yorlarining asosini, pul ta’minoti ko‘rsatkichlarini umumlashtiruvchi, masalan, eng minimal darajada imkoniyati bo‘ladigan oilaviy daromad yoki iste’mol xarajatlarining minimal miqdori kabi ko‘rinishda bo‘ladi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi - bu davlat tomonidan aholining turmush darajasini yaxshilash, ularni qiyin hayotiy sharoitlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Ijtimoiy himoya jamiyatda adolatni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirishda muhim o‘rin Ijtimoiy himoyani kuchaytirish uchun birinchi navbatda aholining bandligini oshirish kerak. Yangi ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish fuqarolarning barqaror daromadga ega bo‘lishiga yordam beradi. Davlat tomonidan kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam va nafaqalar berish ham ijtimoiy himoyaning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar va yordamga muhtoj oilalar uchun maxsus ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish ham fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytiradi.

Kambag‘allikni qisqartirishning strategik ustuvor yo‘nalishlari avvalombor 2022–2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash fuqarolarni himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatlangan daromad manbai bilan ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi, daromad, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib turmush sharoitini yaxshilash muammolari ilgari su rildi<sup>1</sup>. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni

<sup>1</sup>. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. // Янги Ўзбекистон . № 22. 1 февраль.



rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyati samarali yo'lga qo'yilishi belgilangan. Shuningdek, unda barcha darajadagi rahbarlarning mahallaga tushib, o'z yo'nalishi bo'yicha muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezon sifatida belgilanishi qayd etilgan.

Umuman, aholi turmush farovonligini oshirish nuqtai nazaridan kambag'allikni qisqartirish, bunda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini "Ijtimoiy himoya reestri" asosida himoyalash, kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, aholi turmush tarzini yuksaltirish uchun ular bandligini ta'minlash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, uni samarali amalga oshirish ishlari va masalalariga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilganligini tasdiqladi.

Mamlakatimiz Prezidenti kambag'allikni tugatish bo'yicha tegishli choratadbirlarni amalga oshirish yuzasidan qator Farmon va qarorlarni qabul qildi hamda ularni amalga oshirish bo'yicha bir qanda Davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqish borasida tegishli ko'rgazmalar berib kelmoqda. Zero, hayotda munosib yashay olmagan kishi hech mahal davlatdan ham bugungi kundan ham rozi bo'lmaydi. Bularni inobatga olib, mamlakatimizda ham to'rtta muhim hujjat ishlab chiqilishi belgilangan. Bular: «O'zbekiston Respublikasining 2030 yil gacha «Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi»<sup>2</sup>

«Sanoatni rivojlantirish strategiyasi», «Kambag'allikni qisqartirish dasturi» hamda 2021 yildan boshlab barcha hududlarda iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorlar joriy qilinishini ko'zda tutilgan. Bularning 70 tashqari ham kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ancha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash choratadbirlari to'g'risida"gi PF 5975 sonli farmoni va ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirish borasida maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimi ishlab chiqildi va u muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Ammo masalaning ayrim nazariy, uslubiy va amaliy muammolarini borki, uni tadqiq qilib tegishli xulosalar va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo qiladi. Masalaning bu jihati mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi. Kambag'allik darajasi qanday belgilanadi va nima bilan o'lchanadi? Kambag'allik chegarasini belgilashda BMTni son ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan asosiy tovar va xizmatlarni xarid qilish uchun yetarli bo'lgan daromadlar miqdorini asos qilib oladi. Bunday tovarlarga oziqovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turarjoy haqini to'lash, suv bilan ta'minlash, elektr energiyasi, maktab ta'limi, tibbiy xizmat kabilarni kiritishni tavsiya qiladi. Shunga asosan kambag'allik darajasini global miqyosda va har bir mamlakatlar doirasida aniqlanadi.

Kambag'allikni qisqartirishda aholi bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash, sanoatning asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarishni tiklashga qaratilgan choratadbirlar kambag'allik chegarasidan past bo'lgan aholini doimiy daromad manbalari bilan ta'minlashga, ularni kambag'allikdan chiqarishga xizmat qiladi. Shunday qilib, hukumat yagona milliy mehnat tizimi orqali aholini ish bilan ta'minlash, ularni jamoat ishlariga jalb etish, ishsiz fuqarolarni subsidiyalar va bepul o'qitish choralari bilan rejalashtirmoqda. Ayniqsa O'zbekistonda ayollar va

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон 2030 стратегияси" тўғрисидаги Фармони. Халқ сўзи. 12.09.2023. № 190.



yoshlarga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki ularning kamta'minlangan oilalardagi ulushi nisbatan yuqori bo'lib, ayrim hollarda ayollar ham oila boquvchisi hisoblanadi. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kooperativlari tashkil etish, ularda xotin qizlarni ish bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. Umuman, kambag'allik darajasi va uni aniqlashga muvofiq zamonaviy qarashlar, talqinlar va ularni asoslashning institutsional xususiyatlariga ko'ra bugungi kunda dunyo da va O'zbekistonda ijtimoiy siyosat borasidagi o'ziga xos qarashlar, nazariyalar va talqinlar mavjudligini ko'rish mumkin. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy himoyaning manzilligini yaxshilash va byudjet mablag'laridan maqsadli va manzilli foydalanishni shakllantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish orqali aholini manzilli ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos milliy modelini shakllan tirishga alohida e'tibor qaratilayotganligining guvohi bo'lish mumkin. O'zbekistonda ijtimoiy sohalar o'zining barqaror o'sish davriga kirib, ayniqsa aholini ijtimoiy himoyalash, bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishgan.

Kambag'allikni qisqartirishda eng muhim omillardan biri bu - aholi bandligini ta'minlashdir. Chunki doimiy ish joyiga ega bo'lgan.

Aholi bandligini oshirish uchun yangi ish o'rinlarini yaratish muhim hisoblanadi. Sanoat korxonalarini, xizmat ko'rsatish sohasi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali ko'plab odamlar ish bilan ta'minlanadi. Kasb-hunar o'rgatish va qayta tayyorlash markazlari ham muhim ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy bozorda talab yuqori bo'lgan

Xulosa qilib aytganda, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining muhim omillaridan biridir. Bu jarayonlar aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar, yangi ish o'rinlarini yaratish va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

